



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 2-may, № 85 (8708)

Pay shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI XORIJIY DELEGATSIYALAR RAHBARLARINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-may kuni uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Turkiya Respublikasi vitse-prezidenti Javdat Yilmaz boshchiligidagi delegatsiya, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso boshchiligidagi delegatsiya, OPEK Xalqaro taraqqiyot jamg'armasi prezidenti Abdulhamid Al-Xalifa va Ozarbayjon Respublikasi iqtisodiyot vaziri Mikoyil Jabborov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Javdat Yilmaz suhbat avvalida davlatimiz rahbariga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari va ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Faol muloqotlar barcha darajalarda davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi, qo'shma loyiha va korxonalar soni, to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar ko'paymoqda.

Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida energetika, konchilik, oziq-ovqat, to'qimachilik va boshqa ustuvor tarmoqlarda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining bo'lajak navbatdagi yig'ilishi kun tartibini tayyorlash, eng avvalo, kooperatsiya loyihalarining yangi portfeli va madaniy-gumanitar almashinuv dasturini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Odil Reno-Basso boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda keyingi yillarda O'zbekiston bilan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o'rtasida sheriklikning yuksak darajasiga erishilgani, yaqin va samarali hamkorlik qilinayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugungi kunda bankning mamlakatimizdagi loyihalari portfeli 4,4 milliard yevrodan oshgan. Ularda xususiy sektor ulushi 70 foizga yaqinlashdi.

Hamkorlik yo'nalishlari va ko'lamin, eng avvalo, kichik va o'rta biznes, xotin-qizlar

tadbirkorligi, muqobil energetika, raqamli texnologiyalar kabi sohalarda kengaytirish maqsadida O'zbekiston va YTTB o'rtasida yangi Sheriklik strategiyasi qabul qilindi.

Bankning faol ko'magi va bevosita ishtirokida davlat korxonalarini xususiyashtirishga tayyorlash tadbirlari olib borilmoqda, bank-moliya sohasida yirik bitimlar amalga oshirildi, "yashil" energetika, transport infratuzilmasi, ekologiya va boshqa ustuvor yo'nalishlarda me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbari suv ta'minoti, energetika, yo'l infratuzilmasi, "yashil" shaharlarni rivojlantirish borasida yangi loyihalarni tez fursatda tayyorlash va amalga oshirish muhimligini ta'kidladi.

Bo'lajak Xorijiy investorlar kengashi

majlisining kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari Abdulhamid Al-Xalifa bilan uchrashuvda OPEK jamg'armasining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi muhim o'rnini qayd etib, O'zbekistonda sanoat, infratuzilma, suv ta'minoti va boshqa sohalarda moliyalashtirilayotgan tadbirkorlik loyihalarini yuqori baholadi.

Forum davomida imzolangan qiymati 500 million dollarlik bitim doirasidagi loyihalarni tez fursatda tayyorlash va amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi. Hujjatda turizm, logistika, farmatsevtika, ekologiya, xotin-qizlar tadbirkorligi va yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash kabi yangi yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni rivojlantirish nazarda tutilgan.

Ozarbayjon Respublikasi iqtisodiyot vaziri Mikoyil Jabborov uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston — Ozarbayjon strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, shuningdek, ilgari erishilgan kelishuvlar ijrosi doirasida amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'tgan yilda o'zaro tovar ayirboshlash 27 foizga, joriy yil boshidan esa yana 15 foizga oshdi.

Avtomobilsozlik, energetika, qishloq xo'jaligi, elektrotexnika, to'qimachilik, turizm va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Loyihalar portfeli, shu jumladan, Qo'shma investitsiya kompaniyasi mablag'larini jalb qilgan holda yanada kengaytirish muhim ekani ta'kidlandi.

Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlarning iqtisodiy kun tartibini puxta tayyorlash maqsadida yaqin fursatda Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi hamda ikki mamlakat hududlarining ikkinchi forumi o'tkaziladi.

Mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi. O'zbekiston, Ozarbayjon va Qozog'iston energetika vazirlarining bo'lib o'tgan uch tomonlama uchrashuvining asosiy yakunlari yuqori baholandi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING AYRIM FARMONLARIGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TO'G'RSIDA

Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchilligini ta'minlash, bozor tamoyillari asosida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash hamda pensiya va nafaqalar miqdorlarining rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlardan kam bo'lmashligini ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 30-aprel

Toshkent xalqaro investitsiya forumi:

YANGI O'ZBEKISTONNING XORIJIY SARMOYADORLARGA ESHIKLARI OCHIQ

Investitsiya — har qanday mamlakat iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, taraqqiyotini ta'minlovchi muhim kapital. Chunki iqtisodiyot taraqqiyoti bevosita ana shu sarmoya oqimiga bog'liq. U esa hech qachon o'z-o'zidan kirib kelmaydi. Buning uchun zarur muhitni yaxshilash, huquqiy bazani mustahkamlash, investorlarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilishi kerak. Dunyoga ochilgan O'zbekiston bu borada allaqachon dadil qadamlarni tashlagan. Toshkent xalqaro investitsiya forumining muntazam o'tkazilayotgani ham fikrimizning yaqqol tasdiqi. Quvonarlisi, ushbu anjumanning nufuzi va ko'lami tobora oshib bormoqda.

Prezidentimiz III Toshkent xalqaro investitsiya forumiga tayyorgarlik bo'yicha taqdimot bilan tanishuvi chog'ida ta'kidlaganidek, 2022-yilda o'tgan ilk forumga 56 mamlakattan mingdan ziyod xorijiy mehmonlar kelgan bo'lsa, bu yil 84 ta davlatdan qariyb 2,5 ming kishi qatnashishi kutilmoqda. Ular orasida hukumat vakillari, yirik kompaniyalar rahbarlari, BMT, YTTB, OPEK, SHHT kabi xalqaro tashkilotlardan yuqori martabali mehmonlar bor.

Forum mamlakatimizning iqtisodiy imkoniyatlarini ko'rsatish hamda o'zaro manfaatli loyihalarni kelishish uchun

qulay maydon sanaladi. Shu bois uning doirasidagi tadbirlar, muhkama qilinadigan masalalar ko'p. Jumladan, shu'ba majlislari, davra suhbatlari, taqdimotlar, hukumatlararo komissiya yig'ilishlari kabi 40 dan ortiq tadbirlar rejalashtirilgan. Shuningdek, qator loyihalarni ishga tushirish marosimi ko'zda tutilgan. Aytish joizki, tadbir mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan istiqbolli loyihalarning taqdimot platformasi bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, xorijlik sarmoyadorlarga yurtimizdagi imkoniyatlar, yaratilgan sharoitlar va jozibador yo'nalishlar tanishtiriladi.



Prezidentimizning 2018-yil 1-avgustda investitsiyaviy muhitning jozibadorligini oshirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Ushbu hujjatga ko'ra O'zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ko'p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratsiz uzaytirish huquqi berildi.



Da'vat

Abdusaid KO'CHIMOV

ASRA

Qatra simobday titrab, qalqib turibdi dunyo,
Mezon singari idrab, salqib turibdi dunyo,
Kuygan shay turmishlar Yalavochlar — sotqinlar...
Chang-to'zonli zamonda, nonu tuzingni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Asriy sahro, cho'llarda quturmoqda toshqinlar,
Qarindoshdan qondoshga qirg'inlaru bosqinlar,
Imogam shay turmishlar Yalavochlar — sotqinlar...
Fosiq dasturxonidan nonu tuzingni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Mustaqillik, ozodlik qorbodan sovg'amas,
Ne-ne jasur alparga g'animlar qilmadi qasd,
Eh! Bugun ham oz emas, tulki mijoz: ayyor kas...
Nafsi olchoq, qallobdan nonu tuzingni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Buyuk ajdodlaringdan meros erur bu zamin,
Yenog'ing shartdir bugun shu yurtning tashvish-g'amin,
Qolsin desang to abad O'ZBEK degan hur noming...
Shonu sha'ningni asra, qaynoq noningni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Asramasang o'zingni, tuzlig'ingni-tuzingni,
Qashqirlar ilhaq-zordir o'ymoq uchun ko'zingni.
Jahon ehsitsin desang, hayqirig'ing, so'zingni,
Rizqu ro'zingni asra, chaqmoq so'zingni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Har damingda ajdodlar armoni bor, ahdi bor,
Manguberd, Temurbek, Sarbadorlar jahdi bor,
Har ikki Uyg'onishning jahonda o'z taxi bor...
Uchinchi Rennans deb bosgan izingni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Tuqqan yerda tug'ing tik, tuqqan joying chamandir,
Qush butaga sig'ingay, sajdagohing Vatandir,
Vatandan ayrilganga har qadami kafandir...
Kafangado kaslardan elu yurtingni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Dengizga ham osonmas, bardosh bermoq to'fonga,
Hatto quyosh ham goho yo'l bergaydir to'zonga,
Bugun yengil emasdir Yangi O'zbekistonga...
Yangi O'zbekistonda dashtu bo'zingni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Daryo emas bir irmoq, bir daraxt o'rmon emas,
Ko'klam emas bir g'iyoh, bitta don xirmon emas,
Birliyi yo'q ulusning ko'kragi osmon emas...
Daydi to'da-uyurdan janda bo'zingni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Bog' jamoli — bog'bondan. Bog'boning bor daryodil,
Daryodilli bog'bonga daryo bo'lib qo'shilgil,
Daryolarga aylanib, ummon kabi jo'shsin el...
Bog'li diyoring uchun qoru muzingni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Fursat poylab turibdi, qaroqchi kishandorlar,
O'z qavmini kishanlab, to'n kiygan nishondorlar,
Ko'm-ko'k dalangni bevaqt bosmasin desang qorlar...
Bemahal yoqqan do'lu qishdan kuzingni asra,
O'g'il-qizingni asra, asra, o'zingni asra.

Bir vujudga aylansin ming-milliyon jonu tan,
Ming-milliyon vujudlar bir jonga bo'lsin payvand,
Quyosh bitta, Oy bitta, Oyu Quyoshdir VATAN...
Quyoshingni, Oyingni qoshu ko'zingdek asra,
O'g'il-qizingdek asra, asra, o'zingdek asra!

Toshkent xalqaro investitsiya forumi:

YANGI O'ZBEKISTONNING
XORIJY SARMAYADORLARGA ESHIKLARI OCHIQ

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy investitsiyalar ulushining eng kam miqdori 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirildi. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonaning ishtirokchisi sifatida xorijiy yuridik shaxs qatnashishi shartli to'g'risidagi talab ham bekor qilindi.

Bundan tashqari, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunda o'z aksini topgan O'zbekistonda investorlar uchun soliq yukini pasaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan soliq siyosati va soliq-tarif boshqaruvi ishlohtlari jadal sur'atlarda amalga oshirilmog'da.

Jahonda xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha mamlakatlararo keskin kurash ketmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi, uning sifati va qulay shartlaridan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan-yilga investitsiyaviy muhit jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turi ko'rinishlari yaratib kelinmoqda.

O'zbekistonda ham qulay sarmoyaviy iqlim yaratilishi uchun keng harakat qilinmoqda, bu borada xorijiy investorlarga turlicha moliyaviy imtiyozlar va huquqlar berilgan, bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda. Bu haqda so'z ketganda, dastavval, mamlakatni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini, so'ngra Taraqqiyot strategiyasini qabul qilib, uning doirasida keng qamrovli demokratik ishlohtlarni amalga oshirish yo'li tanlanganini ta'kidlash joiz. Ushbu ishlohtlar dasturlari davlatimiz va jamiyatimizning barcha sohasini qamrab olib, qonun ustuvorligini ta'minlash, raqobatni rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi keskin kurash olib borish kabi muhim yo'nalishlarni o'zida mujassam etgan. Xususan, 2017-yilda milliy valyutimiz — so'mning erkin konvertatsiyasini joriy etib, xorijiy investorlar tomonidan foydani repatriatsiya qilish bilan bog'liq cheklorlar olib tashlandi. Bank va yirik korxonalarimiz ilk marta xalqaro reytinglar olib, jahon moliya bozorlariga chiqdi. Dunyo bozorlariga milliy valyutimizda ham xalqaro obligatsiyalar chiqarildi. Shu bilan birga, bank-moliya sohasidagi ishlohtlar tizimi ravishda davom ettirilmoqda.

Investitsiyalarning oqimi mamlakatning ochiqligiga ham bog'liq. Shu ma'noda, ochiqlik siyosatini ta'minlash uchun 100 dan ziyod xorijiy davlatlar fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish imkoniyati yaratildi. Yana o'nlab mamlakatlar fuqarolariga esa yengillashtirilgan tartibda viza olish imkoniyati berildi. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston mintaqadagi eng ochiq davlat maqomini qo'lga kiritdi.

Ma'lumki, investorlar korrupsiya keng tomir otgan davlatga bormaydi. Mamlakatimizda mazkur illatga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi, desak, yangilishmagan

bo'lami. Bu boradagi sa'y-harakatlarni kuchaytirish maqsadida alohida agentlik tashkil etildi.

Investorlar inson huquqlari toptaladigan yurtga sarmoya kiritishdan hadiksirashi, mablag'i talon-toroj bo'lishidan cho'chishi tabiiy. Shuning uchun mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning huquq hamda erkinliklarini kafolatlash va to'liq himoya qilish ham eng ustuvor vazifa sifatida belgilandi. To'rt yil avval Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi qabul qilindi va tarixda birinchi marta mamlakatimiz BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylandi.

O'zbekistonda qonun va adolat mustahkam qaror topgan demokratik mamlakatga aylantirish, mustaqil va kuchli sud-huquq tizimini shakllantirish — eng oliy maqsadlardan biri sifatida xun tartibiga qo'yildi. Ishlohtlarning muhim yo'nalishi sifatida mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va so'z erkinligini ta'minlash, demokratik mediamakon yaratish bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani, ommaviy axborot vositalarini "to'rtinchi hokimiyat"ga aylantirish, davlat idoralarning jamiyat o'ldidagi hisobdorligini kuchaytirish borasida sezilarli natijalarga erishilayotgani e'tiborga molik.

Xullas, insonning eng asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash uchun Konstitutsiyamizning yangi tahriri ishlab chiqildi. Unda ko'p yillar davomida mamlakatimizning turli "qora ro'yxat"larga kiritilishi uchun sabab bo'lgan majburiy mehnat, jumladan, bolalar mehnatiga to'liq barham berilgani muhrlab qo'yildi. Buning e'tirofi sifatida Xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari koalitsiyasi — "Cotton Campaign" hamda jahondagi mashhur brendlar tomonidan O'zbekiston paxtasi va to'qimachilik mahsulotlariga nisbatan ilgari o'rnatilgan bo'kot bekor qilindi va mamlakatimiz bilan yana hamkorlik o'rnatilganini ta'kidlash shart.

Soliq imtiyozlari ham investorlarni o'ziga jalb etuvchi omil sanaladi. Aytish joizki, yurtimizda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foizga tushirildi. Xorijiy investorlar aksiyalaridan oladigan dividendlar uch yil muddatga foyda solig'idan ozod qilindi. Muhimi, soliq va bojxona qonunlariga yangi yoki o'g'irlashtiruvchi javobgarlik choralarini kiritilmasligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Tashqi savdo erkinlashtirilmoqda. Xususan, investorlar uchun zarur bo'lgan 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarlarga bojxona bojlari bekor qilindi. Bojxona hududida qayta ishlanishni soddalashtirgan tartibi joriy etildi. Yangi-yangi bozorlarga kirish maqsadida O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish jarayoni jadallashtirilmoqda. Bu yo'lida qonunlar qabul qilinayapti.

Ijro hokimiyati tizimi isloh etilib, byurokratiya kamaytirildi. Davlatning biznesni tartibga solishga qaratilgan 500 ta funktsiyasi bekor qilindi, 70 tasi xususiy sektorga davlat-xususiy sheriklik va

outsorsing asosida o'tkazildi. Hozirgi kunga qadar 132 ta litsenziya va ruxsat berishga oid hujjat bekor qilindi, 33 tasi bo'yicha xabardor etish tartibi kiritildi.

Eng muhimi, ushbu ishloht doirasida investorlar bilan ishlashning yaxlit tizimi joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida loyiha tashabbusidan boshlab, to uni ishga tushirishgacha bo'lgan barcha jarayonda investorlarga "yagona darcha" orqali ko'maklashish yo'lga qo'yildi. Investorlar muammolarini, taklif va tavsiyalarini tezkor hal etish, ularning davlat rahbari bilan bevosita muloqotini yo'lga qo'yish maqsadida Prezident huzurida Xorijiy investorlar kengashi ish boshladi. 3-may kuni kengashning navbatdagi yig'ilishi o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Ishbilarmonlar huquqlarining himoyasi kuchaytirildi. Chet ellik sarmoyadorlar uchun ko'chmas mulk sotib olish, O'zbekistonga kelib-ketish va yashash shartlari keskin soddalashtirildi. Investorlar

yo'nalishda alohida strategiya qabul qilindi. Natijada qisqa davrda 2 milliondan ko'proq kishi muhtojlar toifasidan chiqarildi. Umuman olganda, ishlohtlar o'zining joiy natijalarini bermoqda.

Bugungi kunda investorlarni qiziqtirishi mumkin bo'lgan yo'nalish va sohalarda talaygina. Birinchisi — "yashil" iqtisodiyot. O'zbekiston an'anaviy energiya manbalaridan foydalanishni kamaytirish, muqobil energiya salohiyatini joriy etish hisobiga ekologiyani yaxshilash, iqtisodiyot unumdorligiga erishishni maqsad qilgan. Bu borada mamlakatimizda jahonning eng nufuzli kompaniyalar qiyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalari amalga oshirayapti. 2023-yilda 2 ming megavatt dan ziyod quvvatlar ishga tushirilgan bo'lib, bu yil 8 ming megavattli quvvatlarni foydalanishga topshirish mo'ljallangan. "Yashil" iqtisodiyot sanoatning yangi yo'nalishlariga ham turki beradi. Bu investorlar uchun 8 milliard dollarlik imkoniyat, degani.



Qalandar ABDURAHMONOV,
akademik.

rivojlanish. Bugungi kunda O'zbekiston to'qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari, elektr texnikasi, mashinasozlik tarmoqlarida yetarli xomashyo va malakali kadrlarga ega. Bu sohalarda ishlab chiqarish va eksportni 2 barobar oshirish uchun yetarli imkoniyatlar bor. Buning uchun yirik brendlar bilan hamkorlik, tashqi bozorlarga chiqish, innovatsiya va zamonaviy texnologiyalar kerak.

Beshinchi yo'nalish — qo'shni davlatlar bilan hamkorlik. Hozirda Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston va boshqa davlatlar bilan qo'shma investitsiya fondlari tashkil qilinib, sanoat, energetika, transport va suv xo'jaligi sohalarda yirik mintaqaviy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Asosiy, O'zbekiston investorlar uchun huquqiy kafolat, alohida texnopark va sanoat zonalar, qo'shimcha imtiyozlar beryapti va ularni kengaytirishga hamisha tayyor. Sarmoyadorlar istagan tinchlik va barqarorlik, qulay investitsiya muhiti hamda zarur kafolatlar yurtimizda yaratilgan.

Eng katta va muhim yutuq esa O'zbekistondagi ishlohtlarning ortga qaytmaydigan muqarrar tus olganidir. E'tiborlisi, "Inson manfaatlari hammasi narsadan ustun" degan tamoyil asosida ishlab chiqilgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati va inson kapitalini rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini yanada rag'batlantirish, investorlar huquqlarini himoya qilish, xususiy mulk daxsizligi va gender tenglikni ta'minlash kabi muhim vazifalarga qaratilgani bilan ajralib turadi.

"Inson qadri uchun" g'oyasini hayotga tatbiq etishga qaratilgan strategiya, pirovardida mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga, keng ko'lami ma'muriy ishlohtlarni amalga oshirish va raqamlashtirishni joriy etish orqali biznes uchun yanada qulay sharoit yaratishga, davlat boshqaruvi tizimining natijadorligini kuchaytirish barobarida ishilarmon va tadbirkorlarga ko'mak beradigan, ixcham hamda yuqori samarali hukumat tizimini tashkil etishga xizmat qiladi.

Bu yo'lida davlatning iqtisodiyotdagi roli va ulushini keskin qisqartirishga, sarmoyadorlarni iqtisodiyotning keng tarmoqlariga jalb etishga e'tibor

“ O'zbekiston investorlar uchun huquqiy kafolat, alohida texnopark va sanoat zonalar, qo'shimcha imtiyozlar beryapti va ularni kengaytirishga hamisha tayyor. Sarmoyadorlar istagan tinchlik va barqarorlik, qulay investitsiya muhiti hamda zarur kafolatlar yurtimizda yaratilgan. ”

huquqlarini himoya qilish borasida ma'muriy sudlarga katta vakolatlar berildi. Bundan buyon tadbirkor va investorlar sudda o'z talabini to'g'riligi isbotlashi shart emas. Endi davlat idorasi o'z qarorining qonuniyligini isbotlab berishga majbur bo'ladi. Yuzaga kelgan har qanday noaniqliklar esa investorlar foydasiga hal qilinadi. Bu yil yurtimizda ilk bor Xalqaro tijorat sud'i faoliyati yo'lga qo'yildi. Bunday iqtisodiy imkoniyatlar va kafolatlar o'z natijasini bermoqda. O'tgan yilning o'zida mamlakatimizda 100 mingga yaqin yangi korxonalar ochildi. Kiritilgan xorijiy sarmoyalar hajmi 10 milliard dollarga yetdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 3 barobar oshgan.

Mamlakatimiz tarixida birinchi marta kambag'allikni bartaraf etish hukumat siyosatining asosiy maqsadlaridan biriga aylantirildi. Bu ham bejiz emas. Investor mahsuloti sotilishini istar ekan, u o'zi mablag' yotqizayotgan mamlakatdagi iste'molchining xarid qobiliyatiga ham qiziqadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu

Ikkinchi yo'nalish — davlat-xususiy sheriklik. Ishlohtlar natijasida oldinlari "yopiq" bo'lgan tarmoqlarga xususiy investitsiyalar faol kirib kelmog'da. Masalan, avval 100 foiz davlat tarmog'i hisoblangan aviatsiya sohasida xususiy sektorga keng yo'l ochildi. Shu bilan birga, tez o'sib kelayotgan axborot texnologiyalari, turizm, ta'lim, tibbiyot kabi sohalarda O'zbekiston mintaqaviy xabga aylanib bermoqda. 2023-yili davlat-xususiy sheriklikni joriy qilish bo'yicha 14 milliard dollarlik alohida dasturlar ishlab chiqilgan. Ular davlat uchun muhim bo'lgan transport, kommunal va suv xo'jaligi, sog'liqni saqlash kabi tarmoqlarni qamrab olgan.

Uchinchi yo'nalish — davlat mulkini xususiy lashtirish. O'tgan yil bo'yicha "1 ming, 1 ming, 40" dasturi qabul qilindi. Ya'ni mingta korxonadagi davlat ulushlari hamda davlatga tegishli yana mingta ko'chmas mulk obyektini ochiq auksion savdolariga chiqarildi, 40 ta strategik korxonaga IPO'ga olib chiqildi.

To'rtinchi yo'nalish — industrial

O'zbekiston va Turkiya:

KO'P QIRRALI HAMKORLIK VA
PARLAMENTLARARO MULOQOT

Kecha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva Turkiya Respublikasi vitse-prezidenti Javdat Yilmaz boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv

Unda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yil sayin mustahkamlanayotgani, shu jumladan, so'nggi yillarda ikki davlat rahbarlarining kuchli siyosiy irodasi tufayli ushbu munosabatlar yangi bosqichga ko'tarilib, strategik sheriklik darajasiga olib chiqilgani alohida e'tirof qilindi.

Oliy darajadagi muloqotlar mustazamlik kasb etmoqda. Buning natijasida ikki mamlakat o'rtasidagi qarodoshlik va do'stlik rishtalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, madaniy-gumanitar, turizm, ta'lim hamda ijtimoiy sohadagi hamkorlik yanada rivojlanmoqda.

Muloqot davomida Turkiya tomoni gender tenglik, xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, tartibli mehnat migratsiyasi, oila ishlari va ijtimoiy himoya sohalarda ko'maklashish, bu borada o'zaro tajriba almashish hamda istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga tayyor ekanligini bildirdi.

O'z navbatida, parlamentlararo aloqalarni mintaqaviy va xalqaro doirada mustahkamlash, uni yanada jadallashtirish, parlamentlararo guruhlar va parlamentlarning barcha qo'mitalari o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiya, innovatsiya, bank-moliya, turizm, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda to'g'ridan-to'g'ri muloqotni faol davom ettirish muhim ekanligi ta'kidlab o'tildi.

Uchrashuv so'ngida tomonlar ikki mamlakatning ko'p qirrali hamkorligini chuqurlashtirish va kengaytirish yo'lida o'zlarining bor kuchi, tajriba va imkoniyatlarini safarbar etishga tayyor ekanini bildirdi.

"Xalq so'zi".

MAMLAKAT TARAQQIYOTI VA AHOLI

Oliy Majlis Qonunchilik

palatasining navbatdagi majlisi

bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz

ijtimoiy-siyosiy hayoti hamda

taraqqiyotiga oid, jumladan,

litsenziyalash, ruxsat berish,

xabardor etish tartib-taomillariga,

madaniy yodgorliklarni saqlash

va restavratsiya qilish, bandlik

xizmatlarini takomillashtirish,

fitosanitariya talablarini yengillashtirishga qaratilgan

bir qator muhim qonun loyihalari atroflicha muhokama etildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Bojxona brokerlari xizmatidan
foydalanish tartibi belgilanmoqda

Majlisda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor etish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga bojxona brokeri faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda muhokamadan o'tkazildi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasi bilan "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor etish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunga vakolatli davlat organini bojxona brokeri hamda xalqaro kuryerlik jo'natmalarini yetkazib berish bo'yicha faoliyatini amalga oshirishlari to'g'risida xabardor qilish tartibi belgilab berilmoqda.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Shuningdek, vakolatli organi xabardor etmasdan faoliyatini amalga oshirganlik, xabardor qilish tartibida faoliyat yuritish uchun belgilangan talablar va shartlarning bajarilganligi yuzasidan vakolatli organga yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar berganlik uchun minimal jarima belgilanmoqda.

Mazkur qonun loyihasi joriy yilning 12-mart kuni bo'lib o'tgan Qonunchilik palatasining majlisida birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilinib, loyihani yanada takomillashtirish bo'yicha deputatlar tomonidan bir qator takliflar berilgan.

O'tgan davrda mas'ul qo'mita tomonidan qonun loyihasini maromiga yetkazish va pishiq-puxta holatga keltirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Ishchi guruh a'zolari tomonidan

bidirilgan har bir taklif chuqur tahlil qilinib, asosli deb topilganlari loyiha matnida aks ettirildi.

Deputatlarining aytishicha, ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga bojxona deklaratsiyalari bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash, bojxona va soliq to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Milliy merosimiz jahon miqyosida
keng targ'ib qilinadi

"Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro tadqiqot markazi Ustaviga (Rim, 2013-yil 29-noyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi qonun loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avlodlarning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadamlarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an'analarini ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinishi mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham madaniy merosni muhofaza

qaratilmoqda. Xususan, xalqaro moliya institutlari va xorijiy konsalting kompaniyalari ko'magida davlat aktivlarini xususiy lashtirish orqali 2026-yilga qadar ekskluziv huquqlarni bekor qilish va davlat korxonalarini xususiy lashtirish hisobidan 25 dan ortiq faoliyat turlari bo'yicha monopoliyalarni tugatish, tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini davom ettirib, bank aktivlarida xususiy sektorning ulushini 60 foizga yetkazish, davlat ishtirokidagi korxonalar sonini kamida 3 barobar qisqartirish rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda xorijiy investorlar bilan birgalikda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etgan holda energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilmani rivojlantirish va yo'l qurilishi sohalarda umumiy qiymati 15 milliard dollarlik 200 dan ortiq loyihalarni amalga oshirish maqsadi ilgari surilgan.

O'zbekiston o'z oldiga jahon bozorlariga katta miqdordagi mahsulotlar chiqarishni maqsad qilgan. Buning uchun mamlakatimizning yaqin yillarda Jahon savdo tashkilotiga to'laonli a'zo bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Hozirning o'zida yurtimizda mahsulot ishlab chiqaruvchilar erkin savdo orqali 280 million iste'molchisi bo'lgan mintaqaviy bozorlarga chiqaypti. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining kengaytirilgan preferensiyalar tizimi "GSP+" doirasida O'zbekistondan 6 mingdan ortiq mahsulot turlarini Yevropa bozoriga imtiyozli shartlarda eksport qilish yo'lga qo'yildi.

Davlatimiz rahbari Markaziy va Janubiy Osiyoning o'zaro bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan tarixiy tashabbusni ilgari surdi. Mavjud transport koridorlarini diversifikatsiya qilish orqali O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Transafg'on temir yo'li orqali Janubiy Osiyoga, O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy temir yo'li orqali Osiyo — Tinch okeani mintaqasiga hamda Janubiy Kavkazni kesib o'tadigan multimodal transport koridori orqali Yevropa mamlakatlariga yetkazish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Ko'rilayotgan chora-tadbirlarning barchasi mamlakatimizning investitsiya jozibadorligini oshirish, biznes muhitini yanada yaxshilash garovi va kafolati bo'lishiga shubha yo'q.

Umuman olganda, amalga oshiriladigan ishlohtlar natijasida kelgusi yillarda yalpi ichki mahsulot hajmini 100 milliard dollarga, yillik eksport hajmini esa 30 milliard dollarga yetkazish ch'ozda tutilgan. Xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 80 foizga yetkaziladi. O'zbekistonning 2030-yilga borib aholisi o'rtadan yuqori daromad oladigan davlatlar qatoridan joy olishiga erishish maqsad qilib qo'yilgan ekan, ortga qaytmas ishlohtlar ushbu ulg'uvor maqsadlarga erishishda tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy, dunyodagi bugungi murakkab vaziyatda ham O'zbekiston yashash va ishlash uchun tinch hamda xavfsiz makon sifatida tanilgan investorlarning yurtimizga bo'lgan qiziqishini, intilishini yanada oshiradi.

KONSTITUTSIYAVIY NORMALARNI RO'YOBGA CHIQRARISHDA PARLAMENT YANADA FAOL BO'LADI

Kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati hamda Parlament tadqiqotlari instituti hamkorligida "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi: amalga oshirilgan ishlar va ustuvor vazifalar" mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tgan edi.

Quyidagi deputatlar, Senat a'zolari, siyosiy partiyalar fraksiyalar rahbarlari, Konstitutsiyaviy sud sudyalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari, olimlar, professor-o'qituvchilar ishtirok etgan ijtimoiy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirishning ilmiy-huquqiy asoslari, Bosh qomusimizni hayotga samarali tatbiq etishda parlamentning o'ri va roli, bu bo'yicha olib borilayotgan ishlarning ahamiyatiga qaratilgan mavzularda ma'ruzalar tinglandi.

Parlamentimiz vakillari bu haqda o'z munosabatini bildirdi.

Aks sado

Aktam HAITOV,
O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari:

— Asosiy Qonunimizda partiyamiz g'oya va maqsadlariga hamohang bo'lgan xususiy mulk huquqi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va kapital harakati erkinligining kafolatlari mustahkamlangan diqqatga sazovor. Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz bergan kafolat natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari soni ko'paymoqda. Ayni paytda ularning soni 630 mingdan oshdi yoki o'tgan bir yilda 10 foizga ko'paydi.

Bundan tashqari, umummilliy boyligimiz bo'lgan yerni uzoq muddatli ijaraga berish mexanizmlari keng joriy etilayotgani tufayli tadbirkorlik subyekti bo'lgan dehqon xo'jaliklari soni 700 mingdan oshdi. Bu, o'z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada xususiy mulk daxsizligi, mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi. Shuningdek, davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlashi, tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyatini yo'naltirishini mustaqil ravishda tanlashga haqli ekanligi mustahkamlandi.

Bosh qomusimizga tadbirkorlik faoliyati uchun tom ma'noda asos soluvchi normaning kiritilishi mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatayapti. Asosiysi, bu mulkdorlarning o'z mulkiga egalik qilishi va ulardan foydalanishi uchun zamin yaratib, ularning davlatga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlandi.

Konstitutsiyamiz yaratib bergan ulkan huquqiy imkoniyatlar samarasida bugun tadbirkorlarimiz soha vakillariga berilayotgan qator yengilliklar, erkinliklardan kuch olib, iqtisodiyotimiz lokomotiviga aylani bormoqda. Yurtimizda ishbilarmonlik muhitining taraqqiy etib borayotgani, yangi-yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil qilingani, aholining salmoqli qismi shu sohada mehnat qilayotganida ham bu yaqqol namoyon bo'layotir.

Alisher QODIROV,
O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari:

— 2019-yilda parlament saylovlarida ishtirok etib, saylov targa'ibotlarini o'tkazganimizda yangi O'zbekiston ulkan islohotlar mamlakatiga aylanib

borayotgani, bu sa'y-harakatlar odamlarning dunyoqarashini o'zgartirayotgani, davlat boshqaruvida ham muhim o'zgarishlar amalga oshirilayotganiga amin bo'lgandik. Prezident tomonidan ilgari surilgan "Inson davlatga emas, davlat — insonga" degan tamoyilning ishlashi qonunchiligimizdagi ayrim masalalarni o'zgartirish zaruratini yuzaga keltirdi. 2019-yildagi parlament saylovlarida aynan bizda, ya'ni 2 ta partiyada chaqiruv sifatida konstitutsiyaviy islohotlarni tashabbus qilish g'oyasi tug'ilgan va bu keyinchalik Prezident tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Konstitutsiyaviy islohotlarning tug'ilish nuqtasi aynan o'sha yerda, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

biz saylovchilarimizga ushbu konstitutsiyaviy normalar mohiyatini tushuntirish bilan birga, ularni ro'yobga chiqarish yo'lida bir xalq bo'lish davlatga tayanamiz.

Ulug'bek INOYATOV,
O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi rahbari:

— Asosiy Qonunimizning qator me'yorlarida kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste'mol xarajatlardan o'z bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi.

Davlat zimmasiga aholi ijtimoiy ehtiyojmand toifalarining hayot sifatini oshirish, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratish choralarini ko'rish majburiyati yuklandi.

Bosh qomusimizning 43-moddasida davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi hamda rag'batlantirishi belgilab qo'yilgani e'tiborga molik. Bu borada yurtimizda muayyan ishlar qilinayapti. Shuningdek, 47-moddada muhim hayotiy qoida — har kim uy-joyli bo'lish huquqiga egaligi belgilandi. Davlat uy-joy qurilishini rag'batlantirishi, uy-joyga bo'lgan

har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqi mustahkamlandi. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashi hamda atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish qat'iy belgilab qo'yildi. Shu bilan birga, davlat yoshlarning ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlashi konstitutsiyaviy darajaga olib chiqildi.

Shu o'rinda Bosh qomusimizda belgilangan normalarni qonunchilikda aks ettirish borasida tizimli ishlar ro'yobga chiqarilganini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, o'tgan bir yil davomida sohaga oid qabul qilingan 10 ta qonun normalarida yuqoridagi qayd etilgan konstitutsiyaviy me'yorlar o'z ifodasini topdi. Tabiat himoyasi, ekologik nazorat, o'simlik hamda hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, atmosfera havosi muhofazasi, ichimlik suvi ta'minoti, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga taalluqli qonun hujjatlari shular jumlasidandir.

Bu boradagi ishlarimizni davom ettirgan holda ekologiya sohasi bo'yicha Konstitutsiyada belgilangan normalardan kelib chiqib, bir qator qonun hujjatlarini hamda xalqaro hujjatlarga qo'shilish

Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlaridagi o'rganishlar yakunida Oliy Majlis Senati Kengashi sayyor yig'ilishlarini o'tkazdi.

Muhimi, shu yig'ilishlarga tegishli vazirlik va idoralar vakillari jalb etilgan holda, mahalliy Kengashlarning faoliyatini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratildi. Ayni chog'da aniqlangan muammolarni hal qilish choralarini ko'rdi. Bu boradagi ishlar izchil davom ettirilaypti.

Aytilish joizki, ushbu yo'nalishda oldimzda qator dolzarb vazifalar turibdi. Avvalo, ko'plab qonunlarimizni yangi tahrirdagi Bosh qomusimizga moslashtirishimiz kerak bo'ladi.

Konstitutsiyada alohida belgilab qo'yildiki, O'zbekiston hududi yagona iqtisodiy makon. Demak, ana shu iqtisodiy makonda moliyaviy resurslar va mehnat resurslari, tovar va xizmatlar harakati hech qanday cheklovsiz amalga oshiriladi. Shu bois mazkur yangilikni xalqimiz juda yaxshi kutib oldi.

Endilikda tegishli qonunlarni ana shunga moslashtirish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq. Ayni paytda Tadbirkorlik kodeksi loyihasi tayyorlangan, u birgalikda qabul qilinsa, tadbirkorlarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratishga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Muhammadjon VALIYEV,
"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi:

— Ma'lumki, inson huquqlarini ta'minlash va uni munosib himoya qilishda advokatura institutining o'ri va roli beqiyosdir. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga advokatura huquqlarini himoya qilish sohasida muhim institut bo'lgan advokaturaning konstitutsiyaviy maqomini tubdan oshirdi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega ekanligi kafolatlandi.

Ayni paytda advokatura institutini rivojlantirish tomon yana ildam ildam qadamlar qo'yish kerak, sudyaning zar jonayonidagi faol roli bosqichma-bosqich kamaytirib borib, asosan, tomonlar o'rtasidagi keltiriladigan dalillarni baholashga ko'proq urg'u berish kerak.

Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish yo'lidan boshib zarurligini qay etib ayniqsa, advokatura, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashinuvini yanada yaxshilash choralarini ko'rish lozim.

Albatta, bularning barchasi partiyamiz dasturiga hamohang bo'lib, biz uchun oliy qadriyat, bu — inson, uning huquq va erkinliklaridir! Shu nuqtayi nazaridan aytganda, "Adolat" SDP "Qonun ustuvorligi — adolati jamiyat qurishning muhim sharti!" degan tamoyilni jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, mansabdor shaxslar faoliyatining muhim qoidasiga aylantirishga harakat qilmoqda.

"Xalq so'zi".



2019-yilda biz, parlament saylovlarida saylovchilarimizga murojaat qilib, ta'lim-tarbiya, oila instituti, milliy qadriyatlar, madaniy merosimizni asrab-avaylash va uni keyingi avlodga yetkazish bilan bog'liq masalalarni ko'tardik. "Milliy tiklanish" DP uchun ustuvor bo'lgan vazifalarni 2019-yildagi saylovoldi dasturimizda belgilab olgan bo'lsak, bu hozirda konstitutsiyaviy norma sifatida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda aksini topdi. Davlat Konstitutsiyada bu masalalarning ham kafili, ham ta'minlovchisi sifatida o'ziga vazifa qilib belgilandi. Masalan, iqtidorli bolalarni otab-onasining sharoiti qanday bo'lishidan qat'i nazar, eng zamonaviy ta'lim olinishi ta'minlash to'g'risidagi Konstitutsiya normasi dunyodagi uncha-muncha davlatning konstitutsiyalarida yo'q.

2019-yilda saylovchilarga va da sifatida ilgari surgan juda ko'p masalalar Konstitutsiyamizda norma sifatida qayd etildi. Partiyamiz "Qadriyatlariga tayangan taraqqiyot" shiori yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yanagramoqda.

2024-yildagi parlament saylovlarida

huquqning amalga oshirilishi uchun sharoit yaratishi, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonun bilan belgilanishi kafolatlandi.

Bugungi kunda Asosiy Qonunimiz islohotlar ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lishining mustahkam kafolatiga aylandi, deysingha barcha asosimiz bor. Bu yilgi davlat dasturida nazarda tutilgan har bir maqsad, vazifa ham fikrimizning yaqqol tasdig'idir. Ushbu xayrli ishlar "Avval — inson, keyin — jamiyat va davlat" degan ezgu g'oyani ro'yobga chiqarish, xalqimizni roz qilib, erkin va farovon jamiyat barpo etishda muhim omil bo'ladi.

Mazkur jarayonda Xalq demokratik partiyasi mamlakatimizda Konstitutsiya qoidalariga rioya qilinishi, huquqlar va imkoniyatlar tengligi ta'minlanishi uchun barcha darajadagi deputatlik korpusi va tashkilotlari orqali amaliy sa'y-harakatlarini izchil davom ettirdi.

Xayrullo G'AFFOROV,
O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari:

— Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 49-moddasida

masalalarni o'rganib chiqishni o'z oldimizga vazifa sifatida belgilab oldik. Jumladan, fuqarolarning atrof-muhit holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqini ta'minlashga qaratilgan qonun loyihalarini ishlab chiqish, Orxus konvensiyasi, Havoning uzoq masofalargacha transchegaraviy ifloslanishi to'g'risidagi konvensiya, Strategik ekologik baholash haqidagi protokol hamda sohaga oid boshqa xalqaro bitimlarga qo'shilish maqsadga muvofiqligini o'rganish oldimzida turgan asosiy vazifalardandir.

Erkin GADOYEV,

Oliy Majlis Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi:

— Davlatimiz rahbarining tegishli Farmoni asosida tashkil etilgan Asosiy Qonunimizni amalga oshirish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan keng ko'lami va samarali ish olib borilyapti. Shu paytgacha joylarda hududlarimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari o'rganib chiqildi. Xususan, Andijon,

MANFAATLARI KAFOLATI

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Ishbilarmonlik muhiti rivojida muhim asos

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat — "Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi Singapur shartnomasini (Singapur, 2006-yil 27-mart) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi Singapur shartnomasi 2006-yil 27-martda qabul qilingan va 2009-yil 16-mart kuni kuchga kirgan. Bugungi kunda Singapur shartnomasi dunyoning 54 ta mamlakati hududida amal qiladi.

Singapur shartnomasining maqsadi tovar belgilari sohasida ishllovchi va shu soha ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlar hamda regional tashkilotlarda tovar belgilarga huquqiy muhofaza olish tizimi foydalanuvchilari uchun yanada maqbul sharoitlarni yaratish hisoblanadi.

Mazkur shartnoma ratifikatsiya qilinishi bilan tovar belgilarga oid mavjud xalqaro normalarni modernizatsiyalash, xususan, hujjatlarini elektron shaklda topshirish, elektron imzodan foydalanish, noodatiy tovar belgilari (tovush, golografik belgilar) tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish kabi tartiblar joriy etiladi.

Shuningdek, uyg'unlashtirilgan tartib-qoidalar va standartlashtirilgan hujjat shakllari bir necha davlatlarda va O'zbekistonda tovar belgilari ro'yxatdan o'tkazishga intilayotgan mahalliy va xorijiy korxonalarining vaqti va mablag'i tejalandi.

Bundan tashqari, tovar belgisidan foydalanishga oid litsenziya hamda huquqni boshqa shaxsga o'tkazishga oid shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishda maksimal talablarning joriy etilishi natijasida ortiqcha hujjatlarini taqdim qilish bartaraf etiladi. Bu orqali milliy va xorijiy tovar belgisidan shartnoma asosida foydalanish soni oshadi.

Deputatlarning qayd etishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi mamlakatimizda investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitining yanada yaxshilanishiga, ortiqcha ovoragarchiliklarning oldini olishga hamda sohaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Bandlik xizmatlarini ko'rsatishda amaldagi muammolar bartaraf etiladi

"O'zbekiston Respublikasida bandlik xizmatlari takomillashtirilishi munosabati bilan "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunga bir qator o'zgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda. Xususan, ish beruvchining bo'sh ish o'rinlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron shaklda yuborish shartlari belgilanmoqda.

Ishdan va ish haqi (mehnat daromadi)dan mahrum bo'lgan shaxslarga ishsizlik nafaqasi

miqdorini belgilash shartlariga aniqlik kiritilib, ishsizlik nafaqasini to'lashni tugatish va to'xtatib turish uchun asoslar ro'yxati kengaytirilmoqda.

Shuningdek, bandlikni rag'batlantirish va tadbirkorlikka jalb etish uchun subsidiyalari vazirlik va idoralarining maqsadli jamg'armalari hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilib, ssuda ajratish yoki rad etishning asoslari belgilab qo'yilmoqda.

Qonun loyihasida xodimlarni ommaviy ravishda ishdan bo'shatish mezonlarining aniq belgilab berilgani hamda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi bilan o'zaro muvofiqlashtirilayotgani kelgusida ishchilarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi deputatlar tomonidan qayd etildi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi ish beruvchilar tomonidan mahalliy mehnat organlariga bo'sh (vakant) ish o'rinlarini taqdim etish jarayonini soddalashtirish, bandlik xizmatlarini ko'rsatishda amaldagi turli muammolarni bartaraf qilish va bandlikka ko'maklashish samaradorligini oshirishga yo'l ochadi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Tadbirkorlar uchun yana bir qulaylik

Majlisda "Fitosanitariya talablari yengillashtirilishi munosabati bilan "O'simliklar karantini to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 29-moddasiga o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

Mazkur qonun loyihasi bilan "O'simliklar karantini to'g'risida"gi Qonunga fitosanitariya mahsulotlarini import qiluvchilarga yengillik berilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Amaldagi tartibga ko'ra xorijiy mamlakatlardan olib kiritiladigan karantin ostidagi mahsulotlarni respublikamiz hududiga kiritish uchun O'simliklar karantini chegaralar punktlarida tadbirkorlardan eksport qiluvchi davlatning fitosanitariya sertifikatini asl nusxasini ko'rsatish talab etiladi. Ushbu hujjat taqdim qilinmagan taqdirda, mahsulotlar davlat chegarasida turib qolishi, ortiqcha xarajatlarning ko'payishi importyor tadbirkorlarimizga qiyinchilik tug'dirmoqda.

Yuqoridagi holatlar fitosanitariya mahsulotlarini olib kirish talablarini yanada soddalashtirish hamda milliy qonunchilikni xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirishni taqozo etyapti. Ayniqsa, chet davlatlarda fitosanitariya sertifikatini taqdim qilinmaydigan mahsulotlarni mamlakatimizga olib kirishdagi to'siqlarni olib tashlash maqsadida amaldagi tartib va talablarni qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Qonun loyihasi bilan chet davlatlarda fitosanitariya sertifikatini talab qilinmaydigan hamda fitosanitar xavfi past bo'lgan karantin ostidagi mahsulotlarni xorijdan olib kirishda fitosanitariya sertifikatini talab etish amaliyoti bekor qilinmoqda.

Qonun tashabbuskorlari tomonidan mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi fitosanitariya talablarini yengillashtirish orqali tadbirkorlarga yanada qulayliklar yaratish va aholining zarur oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga asos bo'lishi ta'kidlandi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Seminar

Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash – dolzarb masala

Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalariga qo'mitasi tomonidan xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish mavzuida seminar o'tkazildi.

Unda senatorlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalariga bo'yicha doimiy komissiyalari raislari va kotibiyat mudirlari, qo'mita ekspertlari, tegishli tashkilot vakillari va yoshlar ishtirok etdi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra dunyodagi har uchinchi ayolga hayoti davomida o'z umr yo'lidoshi tomonidan jismoniy tazyiq o'tkaziladi. Turmush qurgan ayollarning 30 foizi hamrohi tomonidan zo'rovonlikka uchragani haqida ma'lum qilgan. Tazyiq va zo'rovonlik oqibatida o'lim kelib chiqqan hollarning 38 foizida turmush o'rtog'i yoki u bilan yashayotgan shaxsning aybi borligi aniqlangan.

Seminarida ushbu yo'nalishda mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar haqida atroflicha to'xtalib o'tildi. Qayd etilganidek, 2024-yil 1-choragida shahvoniy shilqimlik qilgan 318 shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilib, ularning 97 nafariga jarima, 221 nafariga esa ma'muriy qamoq jazosi qo'llanilgan. Oilaviy (maishiy) zo'rovonlik tufayli 4 ming 343 shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan, shundan 2 ming 344 nafariga jarima, 1 ming 999 nafariga esa ma'muriy qamoq jazosi belgilangan.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan oilaviy (maishiy) zo'rovonlik qilgan 134 nafar shaxs sudlangan. Ularning 51 nafariga ozodlikdan mahrum qilish, 83 nafariga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni tayinlangan.

Ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, xotin-qizlar va bolalarni tazyiq hamda zo'rovonlikdan himoya qilish, og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta'minlash bugun davlat va jamiyat uchun dolzarb masala hisoblanadi. Shu bois ushbu yo'nalishda dadil qadamlar qo'yilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 11-aprelda imzolangan "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun xotin-qizlarning jamiyatdagi o'ri va nufuzini oshirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini mustahkamlashda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Ishtirokchilar tomonidan aytib o'tilganidek, ushbu qonun bilan amaldagi qonunchilikka "oilaviy (maishiy) zo'rovonlik" tushunchasi kiritilib, bunday qilmishlar uchun ma'muriy va jinoyi javobgarliklar belgilangan muhim yangilik bo'ldi. Ayni chog'da bolalarga nisbatan jinсий jinoyatlar uchun ham javobgarlik yanada kuchaytirildi.

O'z navbatida, seminarida shu yo'nalishdagi galdagi vazifalar atroflicha tahlildan o'tkazildi.

"Xalq so'zi".

Senat qo'mitasida

Pirotekhnika buyumlarining noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik kuchaytiriladi

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalariga qo'mitasida "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga pirotekhnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, 2021 — 2023-yillarda 239 ta holatda mamlakatimiz hududiga qiymati qariyb 2 mlrd. so'mlik 300 mingdan ortiq pirotekhnika buyumlarini noqonuniy olib kirish holatlari aniqlangan. Ana shu davrda ichki ishlar organlari tomonidan tezkor-profilaktik tadbirlar va reydlar davomida 42 milliondan ortiq pirotekhnika buyumlari olib qo'yilgan.

Bugungi kunda pirotekhnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq huquqbuzarliklar bo'yicha Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 185-moddasida javobgarlik choralarini belgilangan bo'lsa-da, bu modda dispozitsiyasida pirotekhnika buyumlarining qonunga xilof muomalasini tashkil etuvchi ijtimoiy xavfli qilmish uchun bir xil javobgarlik belgilangan. Ya'ni pirotekhnika buyumlaridan noqonuniy foydalanish, xavfsizlik talablariga javob bermaydigan joylarda saqlash, ishlab chiqarish, tayyorlash, O'zbekiston hududiga olib kirish yoki olib chiqish yoxud o'tkazish uchun bir xil jarima ko'zda tutilgan.

Shu toifa huquqbuzarlik sodir etilganda xavfli qilmishni keltirib chiqargan oqibatlar hisobga olingan holda jazo tayinlanmasligi bunday huquqbuzarliklarning oldini olishda o'z samarasini bermayapti.

Qayd etilganidek, Oliy Majlis Senati ham pirotekhnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, saqlash va foydalanish, ularni mamlakatimizga olib kirish yoki o'tkazish bilan bog'liq salbiy holatlarning oldini olish bilan doimiy shug'ullanib kelmoqda.

Xususan, Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalariga qo'mitasi tomonidan bu kabi salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha mas'ul tuzilmalarga senator so'rovi yuborilgan. Mazkur so'rovlar natijasi o'laroq pirotekhnika buyumlarining qonunga xilof muomalasining oldini olishga qaratilgan ta'sirchan javobgarlik choralarini belgilangan qonun loyihasi ishlab chiqilib, parlamentga kiritish jarayonida ekanligi ma'lum qilingan.

Bundan tashqari, qo'mita tomonidan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlaridan yurtimiz hududlariga qo'shni davlatlardan chegarani buzgan holda pirotekhnika vositalarini olib o'tish holatlarining oldini olish borasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar yuzasidan ma'lumotlar ham olingan.

Qo'mitada muhokama qilingan qonunga kiritilayotgan yangi normalar bugungi kunda olib borilgan hamkorlikdagi umumiy sa'y-harakatlarning amaliy natijasidir.

Qonun bilan Ma'muriy jav

Taraddud



BUXORO DUNYO HUNARMANDLARINI CHORLAMOQDA

Yurtimizda xalq amaliy san'atining ko'plab turlari qatori zardo'zlik va zargarlikni ravnaq toptirish, milliy qadriyatlarimizning ajralmas bir qismiga aylangan hunarlar vositasida mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini yanada oshirish, sohada ishlayotgan mahoratli ustalar tajribasini ishtiyuqmand yoshlarga o'rgatish, shu orqali ular bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilyapti.

Mamlakat rahbari tomonidan 2021-yilning 29-aprelida qabul qilingan "Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalini o'tkazish to'g'risida"gi qaror bu boradagi ishlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur qarorga muvofiq, har ikki yilda bir bor may oyida Buxoroda Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalini o'tkazish ko'zda tutilgan.

Shu yil 3 — 5-may kunlari o'tkaziladigan II xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivaliga katta tayyorgarlik ko'riyapti. Tadbir tashkil etiladigan ko'hna Ark qo'rg'onidan tortib to Labihovuz majmuasiga qadar bo'lgan hudud bugun bayramona qiyofada. Ko'chalar, xiyobonlar yon-atrofi gullarga burkanyapti. Festivalning asosiy tadbiri o'tadigan go'sha — Shahriston maydonida ko'chma sahna barpo etildi.

— Xalqaro anjuman biz, kandakorlar uchun ham ijodiy izlanish, o'zaro tajriba almashish maydonchasi vazifasini o'tayapti, — deydi taniqli usta Shavkat G'ulomov. — Tadbirda hayot, tiriklik ramzi sanalgan gullar, anor tasviri tushirilgan, shuningdek, bodom shaklidagi yangi, original mahsulotlarimizni namoyish etish niyatidamiz. Zimmamizga festival g'olib va sovrindorlariga taqdim qilish uchun kandakorlik buyumlari tayyorlash vazifasi ham yuklatilgandi. Shogirdlarimiz bilan birgalikda bu yumushni

risoladagidek bajardik. Ularda ko'hna Buxoro manzaralari tasviriga alohida urg'u berilgan. Ishonamizki, bu buyumlar g'olib zardo'zu zargarlar uchun betakror diyorimizdan bir umrik esdalik bo'lib qoladi.

Darvoqe, xalq amaliy san'ati noyob durdonalarini asrash, targ'ib etish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik rishtalarini mustahkamlash kabi olijanob maqsadlar ko'zda tutilgan bu safargi anjuman dasturi rang-baranglik bilan e'tiborni tortadi. Hunarmandlar ko'rgazmasi, tajribali ustalarining mahorat darslari, milliy liboslar namoyishi, shuningdek, zardo'zlik va zargarlikka bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazish shular jumlasidan. Anjuman kunlari xorijiy sayyohlar, shahar mehmonlari uchun ko'ngilochar tadbirlar ham uyushtiriladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro anjumanga 70 davlatdan 200 ga yaqin ishtirokchilar qatnashadi. Undan tashqari, respublikamiz viloyatlarida yashab, xalq amaliy san'ati bilan shug'ullanayotgan yuz nafardan ziyod zargarlar, ellikdan ortiq zardo'z va kashtado'zlar, ko'plab boshqa hunar egalari Jahon hunarmandlar shahri — Buxoroda o'z mahoratlarini namoyish qiladi.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi")

Taqdimot

TARIXIY BITIKLAR SIRI YOSHLAR QALBIGA JO BO'LAJAK

Poytaxtimizda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati tomonidan 220 ming nusxada chop etilgan "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" kitob-albomining Toshkent shahridagi maktab kutubxonalariga topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Unda davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari, pedagoglar hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Qayd etish joizki, ushbu muhtasham majmua mamlakatimizdagi tarixiy obidalar, me'moriy yodgorliklardan joy olgan tarixiy bitiklar sirini ochishga qaratilgan yagona yirik loyiha hisoblanadi. To'planning hozirgi kunda 20 jildi nashr qilingan bo'lib, o'qish-o'rganish va to'plash ishlari yana davom etmoqda.

Tadbirda bino va obidalarimizdagi bitiklar asrlar osha tariximizdan so'zlab kelayotgani, mazkur loyiha ularni asrab-avaylash hamda xalqimizga yetkazishga qaratilgani, shu bois kitob-albomlarni tarqatish ishlari aynan ta'lim muassasalaridan boshlangani ta'kidlandi.

tarqatish ko'zda tutilgan, — dedi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti bo'lim mudiri, filologiya fanlari nomzodi Salimaxon Eshonova. — Chunki kelajak avlod vakillariga ona yurtimiz tarixini, ota-bobolarimiz ilmu nasihatini yetkazish orqali ularga saboq beramiz, tarbiyalaymiz. Ushbu kitob-albom shu jihati bilan ham alohida ahamiyatga molik.

Tadbir yakunida qatnashchilarga kitob-albom hamda Registon va Shohi-Zinda tarixiy majmualari aks etgan go'zal suratlar tuhfa qilindi.

Samandar PARDABOYEV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi.

"TRASTBANK" TOMONIDAN POYTAXTIMIZDAGI MAHALLALARDA KUTUBXONALAR OCHILDI



Kitob — insonning eng yaqin do'sti va mashlahatchisi. Kitob mutolaasi esa kishining ongu tafakkurini teranlashtirib, qalbiga ezgu niyatlarni jamlaydi, yaxshiliklar olamiga yetaklaydi. Ma'naviyat sarchashmasi bo'lgan kitobga xalqimiz azaldan o'zgacha mehr qo'ygan. Kitobxonlik qon-qonimizga singib ketgan, desak ham, mubolag'a emas.



So'nggi yillarda turli tashkilot va idoralar hamda mahallalarda aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etish, kitobxonlik madaniyatini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu jihatdan, "Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki tashabbusi bilan poytaxtimizdagi "Bo'ston", "Beltepa", "Al-Xorazmiy", "Kamolon darvoza", "Gulobod" va "Beshqayrag'och" mahalla fuqarolar yig'inlarida shinam kutubxonalar tashkil etilib, foydalanishga topshirildi. Jahon va milliy adabiyot namunalarini, bolalar uchun qiziqarli asarlar to'plami, qolaversa, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega jami 6 mingga

yaqin kitoblar mahalla ahliga katta qiziqish uyg'otmoqda. Mazkur kutubxonalarining ochilishi chin ma'noda bayramga aylanib, har bir yoshu keksaga quvonch bag'ishladi.

Yana bir jihatga alohida e'tibor qaratish joiz. Mahallalarda bu kabi ko'rkam va mo'jaz kutubxonalar tashkil etilishi nafaqat aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirishga, balki shu hududda yangi ish o'rnlari yaratilishiga xizmat qilmoqda. Ya'ni ushbu mahallalarda yashovchi, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek, "temir daftar", "ayollar dafteri" va "yoshlar dafteri"da ro'yxatda turuvchi aholining ish bilan ta'minlanishiga ham erishilmoqda.

2024-yil 1-mart holatiga ko'ra, Bo'ston mahallasida 7 ming 910 nafar aholi, jumladan, 2 ming 237 nafar yigit, 3 ming 919 nafar xotin-qiz istiqomat qiladi. Mahallada kitobxonlikni targ'ib etish barobarida aholining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish, mahallaning ixtisoslashuvini kuchaytirish, hududdagi zahira va imkoniyatlarni ishga tushirish orqali kambag'allikni qisqartirish kabi masalalarga ham ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

— Mahallamizda jami 8 ming 520 nafar aholi yashaydi, shundan 4 ming 176 nafari xotin-qizlardir, — dedi "Beltepa" MFY raisi Komiljon Karimov. — Bu kabi ko'rkam

Moliya muassasalarida

kutubxonaga juda zarur edi. Boisi, nafaqat yoshlar, balki keksa avlod ham bo'sh vaqtini endi ana shu ziyo maskanida o'tkazadi. Ko'rib turganingizdek, o'zining nabiralarini, farzandlarini ushbu kutubxonaga olib chiqib, kitob mutolaa qilishi uchun barcha shart-sharoit yaratib berilgan. Albatta, bu kabi imkoniyatni taqdim etgan "Trastbank" mutasaddilariga alohida minnatdorlik bildiramiz.

Al-Xorazmiy nomidagi mahallada istiqomat qiluvchi fuqaro, III guruh nogironi Ra'no Ashurova ham mazkur hududda kutubxonaga tashkil etilganidan mamnunligini bildirdi.

— Men bolaligidan kitobni sevib mutolaa qilardim, — dedi u. — Kitobga mehrim meni mana shu maskanga kutubxonachi lavozimida ishga qabul qilinishimga ham turtki bo'ldi. To'g'risi, bu oilaviy budjetimizga ham ancha foydalidir. Sababi, ishga borish-kelishda yo'lkira sarflamayman. Uyimiz mahallaning shundoq biqindisi joylashgan. Taqdim etilgan mingdan ziyod kitoblar, kitobxonlar

Reklama

Аксал МУХАММАДОВ олган суратлар.

uchun yaratilgan shart-sharoit hamda kompyuter texnologiyalari mahallamiz ahlini, yoshu keksani birdek quvontirmoqda.

Darhaqiqat, axborot-kommunikatsiya yo'nalishida yutuqlarga erishish barobarida aholi, ayniqsa, o'g'il-qizlar orasida kitobxonlikni targ'ib etish borasidagi ushbu sa'y-harakatlar alohida e'tirofga sazovor. Zotan, bu kabi ziyo maskanlari va undagi kitoblar hayotni, ona Vatanni, oila va mahallani, qolaversa, atrof-muhit hamda tabiatni sevishga undaydi.

Bank axborot xizmati.

Xizmatlar litsenziyalangan.

KITOB — BEMINNAT USTOZ

Mamlakat rivojining eng asosiy omillaridan biri, bu ilm-fan, ta'lim, madaniyat, ayniqsa, yoshlarda kitobxonlikka mehri uy'otish bilan bevosita bog'liq. Shu bois yurtimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ushbu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, bugungi kun talablari asosida yanada rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish buyuk maqsadlarimizga erishishning muhim kafolatidir. Kitob — beminnat ustoz. Bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai".

Ta'kidlash joizki, keyingi paytlarda barcha davlat muassasalari bilan bir qatorda, xususiy sektorda faoliyat yuritayotgan moliya muassasalari tomonidan ham aholi, ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlikni targ'ib etish va rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilayotir.

Xususan, "Ipak yo'li" aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki tomonidan Toshkent

shahri o'ziga birlashtirilgan "Kulolqo'rg'on", "Mustaqillik", "Salar", "Bekto'pi", "Jarbuloq", "Shaftolizor", "Istirohat" hamda Yunus Rajabiy va G'ani Azamov nomidagi mahalla fuqarolar yig'inlari hududida yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga sharoit yaratib berish maqsadida zamonaviy kutubxonalar tashkil etildi.

Mazkur kutubxonalar bugungi kunga qadar mahalladagi 9 nafar ishsiz xotin-qiz kutubxonachi lavozimiga jalb etilib, bandligi ta'minlandi. Bundan tashqari, yuqorida aytilgan mahallalardagi vaqtinchalik ishsiz yurgan fuqarolar aniqlanib, ularni bank mijozlari bo'lgan tadbirkorlik



Reklama

subyektlarining bo'sh ish o'rnlari ishga joylashtirish bo'yicha ham keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilayapti.

Shuningdek, moliya muassasasi tomonidan mahallalarda biznes qilish

istagidagi kishilarga "Ilk qadam" kredit mahsulotlari orqali ularning o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun moliyaviy ko'mak berib kelinayotir. Natijada

mahallalardagi ishsizlar soni kamayib, bandlik darajasi oshib bormoqda. Bu yo'nalishdagi chora-tadbirlar tizimli davom ettirilaveradi.

Bank axborot xizmati.

Xizmatlar litsenziyalangan.

Samarqand shahri 4-mayga qadar davom etadigan xalqaro tennis turniriga mezbonlik qilmoqda.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksal olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxonona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulligiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxonaga telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.20 Topshirildi — 02.20 1 2 3 4 5 6

ISSN 2010-6768